

Date: 17th November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUKUQBUZARLIKlar
PROFILAKTIKASIDA SOG'LIQNI SAQLASH MUASSASALARI BILAN
HAMKORLIGI MAZMUNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Fayziyev Hasan Raxmatillaevich

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 311-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbliji shundaki, Profilaktika inspektori fuqarolarning sog'lig'iga qarshi huquqbazarliklarni aniqlash va oldini olishda sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyati tushunchasi, mazmun va moxiyati, o'ziga xos xususiyatlari, faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar. Shuningdek muammolar va kamchiliklar, hamda ularning bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar yoritib berilgan.

Аннотация: Актуальность темы данной научной статьи заключается в понятии, содержании и сущности, особенностях, правовых нормах, регулирующих деятельность профилактического инспектора во взаимодействии с учреждениями здравоохранения по выявлению и предупреждению нарушений здоровья граждан. Также освещены проблемы и недостатки, а также ряд предложений по их устранению.

Ilmiy maqolaning dolzarbliji: " O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari tug'risida"gi konunining 11 -moddasida ichki ishlar organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maksadila, konun xujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari, fukarolarning o'zini o'zi boshkarish organlari va boshka tashkilotlar bilan xamkorlik kiladi xamda aniklangan jinoyatlar va boshka xukubuzarliklarga oid mavjud materiallar tug'risidagi axborotni almashishni, shu jumladan elektron shaklda almashishni, shuningdek boshka axborotni almashishni amalga oshiradi. Davlat organlari, fukarolarning o'zini o'zi boshkarish organlari va boshka tashkilotlar fukarolarning xukuklari, erkinliklari va konuniy manfaatlarini ximoya kilishda, jamoat tartibini saklash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatlar va ma'muriy xukubuzarliklarning oldini olish, ularni aniklash, ularga chek ko'yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarini tergov kilishda, jinoyatchilarni kidirishda, bedarak yukolganlarning turgan joyini aniklashda, shuningdek xukubuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlariga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashishi shartligi ko'rsatib o'tilgan4. O'zbekistan Respublikasining «Xukubuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi 2014 yil 14 may konunining 9-moddasida xukubuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimi belgilab berilgan.

Ichki ishlar organlarining davlat sog'likni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'likni saqlash muassasalari xodimlari bilan hamkorligi tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar, Sog'liqni

Date: 17th November-2024



saqlash, Oliy va o’rtalik maxsus ta’limi va Xalq ta’limi vazirliliklarining 2014 yil 4 noyabrda «Huquqbazarliklar faktlari hamda huquqbazarliklar bilan bog’liq boshqa holatlar haqida ichki ishlar organlariga xabar qilish tartibi to’g’risidagi yo’riqnomani tasdiqlash haqida»gi qo’shma qarori qabul qilingan bo’lib, Qaror asosida ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari ichki ishlar organlariga quyidagi xabarlarni o’z vaqtida yetkazib berishlari shartligi belgilab qo’yildi, bular:

- huquqbazarliklar faktlari haqida;
- odamlarning hayotiga yoki sog’lig’iga tahdid soladigan oilaviy-maishiy nizolar to’g’risida va oilaviy-maishiy munosabatlardan sohasidagi huquqbazarliklar haqida;
- ta’lim oluvchi shaxs g’ayriijtimoiy xulq-atvorga va huquqbazarliklar sodir etishga jalganligi haqida;
- huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo’lgan shaxslar haqida xabar qilishi shart.

Sog’liqni saqlash tizimini davlat tomonidan boshqarish organlari va sog’liqni saqlash muassasalari bilan profilaktika inspektori hamkorligi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- aholiga sanitariya-gigiyenaga oid bilimlarni yetkazish, ular o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish, shuningdek yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishda ko’maklashish;
- alkogolizmga, giyohvandlikka, zaharvandlikka, ruhiy kasalliklarga, OIV infeksiyasiga, tanosil kasalliklariga va atrofdagilar uchun xavf soluvchi boshqa kasalliklarga chalingan shaxslarni aniqlash, ularni hisobga olish, shuningdek ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirishda yordam berish;
- hayot va sog’liqqa qarshi qaratilgan jinoyat va ma’muriy huquqbazarliklarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergen sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;
- odam savdosidan jabrlanganlarni belgilangan tartibda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etish va boshq.

Profilaktika inspektori faoliyati davomida turli hildagi muammolarni asosini tan jarohati bilan bog’liq jinoyatlarni o’z ichiga oladi. Bunday holatlarda ichki ishlar organlari davlat sog’liqni saqlash tizimini boshqarish organlari bilan hamkorlik vujudga keladi. Bunda profilaktika inspektori jarohatlangan shaxsni birinchi tibbiy yordam ko’rsatish va ularni qanday holatlarda jinoyatga aloqadorlik mavjudligini o’rganishda ko’maklashadi. Ma’muriy hududda tan jarohati bilan bog’liq jinoyatlar bo’lgan taqdirda ular tibbiyot muassasalariga borganda xabarnoma ichki ishlar bo’limiga yuborilganda ularni sabab sharoitlari o’rganilib chiqiladi. Sabablarini o’rganish vazifasi hududiy ichki ishlar organlari zimmasaidagi vazifa hisoblanadi. Bunda holat bo’lgan joy va tan jarohati qaysi fuqaro olgan bo’lsa shuning hududida surishtiruvbi profilaktik inspektorlari olib boradi. Voyaga yetmaganlar bilan bog’liq tan jarohati va o’lim bilan bog’liq holdagi tan jarohatlar bo’lgan taqdirda prokratura bilan hamkorlik yo’lga qo’yiladi. Profilaktika inspektori faoliyatida eng ko’p uchraydigan holatlar bu spirtli ichimlik ichib jinoyat sodir etish hisoblanadi.

Date: 17th November-2024



Bunday holatlarda ichki ishlar organlari fuqaroni spirli ichimlik ichib ko'pdan buyon mahallada tinchlik bermayotgan bo'lган taqdirda unga nisbatan qanchalik jarima yoki jazo qo'llamaylik uni tuzalish yo'liga qaytarib bo'lmasligini tushinib yetish kerak. Bunday holatlarda yeng to'g'ri yo'l spirli ichimlikka mubtalo bo'lган shaxsni 6 oylik majburiy davolashga yuborish kerak.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida profilaktika inspektorining huquqbazarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlik qilibgina qolmasdan boshqa organlar bilan ham hamkorlikni samarali amalga oshirilyapti. Ushbu o'rinda aytib o'tish kerakki, ichki ishlar idoralari sog'lom avlod yetishib chiqishi uchun sog'liqni saqlash organlari bilan kasallikka qarshi kurashni boshqacha tizimda olib bormoqda. Bu tizim fuqarolar yig'ini huzuridagi voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya bilan sport sohasida hamkorlikda ishlar olib borilganligini ko'rish mumkin. Profilaktika inspektorlari va mahalla yig'ini tashabbusi bilan turli sport tadbirlari uyushtirish orqali ham sog'lom muhit va uyushmagan yoshlarni sportga jalb qilish kabi harakatlarni olib bormoqda.

Profilaktika inspektorining huquqbazarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikni yuksaltirish uchun ularda malaka oshirish tizimini shakllantirish kerak bo'ladi. Bundan ko'rinish turibdiki har ikkala organ faoliyati bir biri bilan chambarchas aloqadadir. Ichki ishlar organlarining hukuqbazarliklar faktlari haqida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda quyidagi kamchilik va muammolar kuzatilmoqda:

-Profilaktika inspektorlari va sog'liqni saqlash muassasalari o'rtasida elektron tarzda hamkorlik o'rnatish tizimi samarali yo'lga qo'yilmaganligi;

-O'zaro hamkorlik o'rnatish jarayonida bir birlarini bevosita tushunmayotganligi natijasida samaradorlik darajasini anglab yetmayotganligi;

-sog'liqni saqlash muassasalariga tan jarohat bilan murojaat qilib kelgan fuqarolarning aksariyati muassasa xodimlari bilan tanishligi sababli mahalliychilikka yo'l qo'yayotganligi va boshqalar.

Ushbu holatlardan kelib chiqib ularni hamkorlikda muammolarni o'rganib chiqib quyidagi takliflarni berib o'tish kerak:

-sud tibbiyot ekspertizalarining xulosalarini ekspertlardan elektron shaklda olish mexanizmini amaliyatga joriy etish;

-profilaktika inspektorihamda sog'liqni saqlash muassasalari o'rtasida elektron axborat almashuv bazasini yaratish;

-so'gliqni saqlash muassasasi xodimlariga IIOga bermagan har bir xabarları natijasida qanday og'ir hatti-harakat yoki jinoyat sodir etilishi mumkinligini tushunturish berish va boshqalar.